

This is not registered version of TotalDpsConverter

Arslon, bo'q va ustiga o'z o'rniga bo'q o'rniga borishdi. Aslida arslon tengi bo'lmagan tulki bilan bo'rini ovda sherik qilishi to'g'ri emasdi. Ammo "jamoat bo'lishda baraka bor" deyilgani uchun bu safar shuni ixtiyor qildi. Uchta bo'lishdimi, endi ulardan biri boshliq bo'lishi lozim. Arslon o'zi boshliq bo'lishini bilgani uchun bu haqda tulki bilan bo'riga maslahat solib o'tirmadi.

Tushgacha ular bir yovvoyi eshak, bir yovvoyi echki va semizgina bir quyon ovlashdi. Ovlari baroridan kelgan edi. Ovlarini tishlab sudraganlaricha bir g'orga olib kelishdi. Ular juda ham ochqashgan, qorinlari tatalab borar edi.

O'ljalarni o'rtaga qo'yishdi. Endi buni taqsimlash kerak edi. Aslida, kim boshliq bo'lsa, o'sha taqsim qilishi kerakligini arslon yaxshi bilardi, lekin sinash uchun bo'riga qarab, dedi:

- Qani, tajribali do'stim bo'ri, shu ovlaganlarimizni o'rtamizda bir taqsimlab ber-chi? Shunday taqsimlaki, ko'nglingdagidek bo'lsin. Bo'ri darhol ishga kirishdi.

- Bosh ustiga! Birpasda hal qilaman. Avvalo sizning ulushingizni beraman... Mana shu yovvoyi eshak eng katta ovimiz. U sizniki. Kattakon gavgangizga munosib tushlik. Echki kelsak, u menga tegishli. Menga shu ham bo'laveradi. Quyovni bo'lsa, tulkiga beramiz. Aslida, uni... Mana, bo'ldi, ruxsat bersangiz, yeyishni boshlasak.

Arslonga bo'rining taqsimi as-lo yoqmadi. Birinchidan, u bo'rining: "Yo'g'-e, biz kim bo'pmiz. O'zlari taqsimlasalar tuzuk, bermasalar o'zlaridan qolgan sarqitga ham rozimiz", deyishini kutgan edi. Ikkinchidan, bo'rining o'zini katta tutgani ensasini qotirdi. Unga qolsa, tulkiga hech narsa bergisi yo'q.

Arslon qattiq g'azablanib, bo'riga hayqirdi.

- Ey ahmoq! Sen kim bo'psanki, o'zingni odil taqsimchi his qilyapsan. Mening kimligimni unutib qo'yibsan, so'tak! Axir, men hayvonlar podshohiman. Sen ahmoqqa men turib, ulush taqsimlashni kim qo'yibdi? Ahmoqliging boshingga yetdi! - dediyu bo'riga tashlandi va birpasda uni tilka-pora qilib tashladi.

Aqli-hushi boshidan uchib, qo'r-qib ketgan tulki qotib qolgan, na gapira olar, na o'rnidan jila olar edi.

Bo'rining ishini bitirgan arslon joyiga kelib o'tirgach, dir-dir titrayotgan tulkiga qarab:

- Senga nima bo'ldi? Nega qotib qolding? Yaqinroq kel-da, ovlarni taqsimla! - deb buyurdi.

Tulki amrga muvofiq yaqinroq surildi. So'ng tili zo'rg'a kalimaga kelib:

- Xo'p bo'ladi, sultonim! To'g'risi, ulush taqsimlash men bechoraning ishi emas. Bu ishga faqat Siz loyiqsiz. Ammo... O'zingiz buyuryapsiz. Na chora... - dediyu jim o'ylanib qoldi. "Shunday taqsimlayki, jonim omon qolsin", deb o'yladi u.

- Nega jim bo'lib qolding? - dedi arslon o'rnidan turib.

- Hozir... hozir... Yaxshilab o'ylab oldim-da... Xo'sh... ojiz fikrimcha, bu yovvoyi eshak nonushtalik ovqatingiz bo'lgani ma'qul. Axir, ertalabdan beri tuz totganingiz yo'q. Buning ustiga, charchadingiz. Aslida katta gavgangizga bu urvoq ham bo'lmaydi... Echki kelsak, uni tushlik ovqat o'rnida tanovul qilsalar, juda yaxshi bo'ladi. O'ziyam sizbop tushlik. Taningizga kuch-quvvat bo'lib singsin!.. Quyonga kelsak, kattagina va semizgina narsa. Buni kechki ovqatingiz uchun saqlab qo'-yamiz. Axir, kechqurun ham nimadir yeyishingiz kerak-ku...

Tulki shunday deya mo'ltirab arslonga qarab qoldi.

Arslonning bu taqsimdan kayfi chog' bo'ldi, g'azabi tarqab, dili xotirjam, mamnun bo'lib, tulkiga qaradi. Tushlik qilishga kirishar ekan:

- Barakalla, tulkivoy. Mana buni odil taqsim desa arziydi. Baloday aqling bor ekan-a! Bunaqa taqsimni sen qayoqdan o'rganding? - dedi.

Tulki bir chetda burda-burda bo'lib yotgan bo'riga ishora qilib:

- Manavi sho'rlikning holidan, - dedi.

- Ofarin... Bundan buyon menga qanday muomala va xizmat qilish lozimligini boshqalarga o'rgatasan. Uqdingmi?! - dedi arslon yovvoyi eshakning sonini paqqos tushira turib.

- Bir og'iz so'zingiz, - dedi tulki hozirjavoblik bilan.

"Nonushta"ni tugatgan arslon tulkiga o'zidan ortgan mayda-chuydalarni yeyishni ishora etdi.

Yovvoyi eshakning boshini g'ajiyotib tulki holiga shukr qilar va: "Yaxshiyam taqsim navbati menga bo'ridan keyin keldi. Uning o'rnida bo'lganimda hozir.." deya o'ylardi.

Qissadan hissa: Yo'lga chiqish oldidan yo'ldoshlik uchun yaxshi, bama'ni kishilarni tanlash lozim. Chunki haqiqiy do'st safarda bilinadi.

Donolar aytganlar: "Sen menga yo'ldoshing, do'sting kimligini ayt, men senga kimligingni aytaman"; "Yaxshi bilan yurdim, qand yedim. Yomon bilan yurdim, pand yedim".

Kishi uchun eng zarur narsa har yerda o'z haddini bilish, aql bilan ish tutishdir.

Aqlli odam har narsadan bir ibrat olgay.

Kishi o'zidan oldin yashab o'tganlar boshiga kelgan balolarni unutmashligi, shunga ko'ra harakat qilishi darkor.

O'tmishdan agar ibrat

olmasa kishi,

Kelajagi boshqalarga

ibrat bo'lg'usi...

"Hidoyat" jurnalining 2004-yil, 6-sonidan olindi